SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SUYUNOV SHERZOD BOLIKULOVICH

O‘ZBEKISTONDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

UDK: 1 (571.1):494.3

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) пофилософскимнаукам

Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) onphilosophical sciences

Suyunov Sherzod Bolikulovich
O‘zbekistonda milliy o‘zlikni anglashda o‘zbek tilining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati..... 3

Суюнов Шерзод Боликулович
Социально-философское значение узбекского языка в понимании национальной идентичности в Узбекистане..... 21

Suyunov Sherzod Bolikulovich
Socio-philosophical significance of the uzbek language in the understanding of national identity in Uzbekistan..... 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 43

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SUYUNOV SHERZOD BOLIKULOVICH

O‘ZBEKISTONDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fal505 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Melikova Martaba Numanovna** falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Yazdonov Ulug‘bek Toshmurotovich** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
	Ro‘zimurodov Siroj Madatovich falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “____” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40, 239-1892; faks: (0366) 239-11-40; emil: rektor@ samdu.uz. Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87; faks: (0366) 239-11-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “____” _____ kunida tarqatildi.
(2023-yil “___”_____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi bilan bir vaqtda milliy o‘zlikni anglash va o‘zining tarixiy ildizlariga qaytish jarayonlari ham jadal kechmoqda. Bu o‘z navbatida kelajak avlodni har tomonlama ona Vatanga muhabbat va ajdodlar an’anasiga hurmat ruhida tarbiyalash yo‘lining falsafiy tahlilini olib borish zaruratini ko‘rsatmoqda. Bunda asosiy e’tibor milliy tilga qaratilgan bo‘lib, inson milliy til orqali o‘zining biror millatga mansubligini hamda dunyoni anglash orqali bu olamdagi o‘zining o‘rnini anglaydi. Shu ma’noda milliy til taraqqiyoti muammolarini bartaraf etish mexanizmlarini aniqlash ijtimoiy falsafaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahon ilmiy-tadqiqot markazlarida milliy o‘zlikni anglash va shakllantirishda tilning o‘rnini aniqlash borasida ko‘plab ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilayotgan bo‘lib, bu bugungi zamonaviy sharoitda urf-odatlar va an’analar, xalqlar va elatlar hamda madaniyatlar transformatsiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Yoshlarga milliy tilga muhabbat tuyg‘usini singdirish orqali milliy o‘zlikni shakllantirish va rivojlantirishning fundamental va nazariy asoslarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Zero, globallashuv sharoitida milliy tilni asrab-avaylash va yanada rivojlantirish orqali millatning ma’naviyati va madaniyatining rivojlanishi hamda uning o‘ziga xosligini ta’minlashga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati bevosita kishilarning o‘z milliy o‘zligini anglashi, yurt kelajagi uchun mas’uliyat hissining shakllanishi, qolaversa xalqimiz oldiga qo‘yilayotgan pirovard maqsadlarning to‘g‘ri tanlangani va amaliy hayotga tatbiq etishi bilan ham bog‘liqdir. “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir”[1]. Shuning uchun ham, yoshlarda o‘zining milliy ona tiliga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish orqali milliy o‘zlikni shakllantirish obyektiv zaruratga aylanib bormoqda. Bu esa o‘z xalqining o‘tmishi va kelajagi o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tayotgan yosh avlodning milliy o‘zligini chuqur anglashiga xizmat qilishiga doir tadqiqotlarni izchillik bilan davom ettirishni ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekistonda Yoshlar Ittifoqi

[1] Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. https://xs.uz/uzkr/post.

faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi roli va nufuzini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari va 2020-yil 20-oktabrdagi PQ-6084-son “Mamlakatda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadkiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Milliy til va o‘zlikni anglash masalasi hamisha dolzarb mavzu bo‘lib kelgan. Til masalasiga oid eng dastlabki fikrlar A.Forobiy, A.Beruniy, M.Zamaxshariy, M.Koshg‘ariy, A.Navoiy kabi sharq allomalarining asarlarida yoritilgan bo‘lib, ularda til falsafasi, qiyosiy, nazariy va amaliy tilshunoslik masalalari chuqur tahlil etilgan.

Jumladan, milliy til tadqiqotiga doir qator ilmiy faoliyatlar dunyoning turli qit’alarida faylasuf va sotsiolog olimlar tomonidan o‘rganilgan. Tilshunoslik va uning falsafiy muammolariga bag‘ishlangan asarlarni o‘rganish, tadqiq etish asnosida tilning mohiyati, uning tizimi, jamiyat hayotidagi o‘rni, madaniyatning mohiyati, til madaniyatining xususiyatlari, madaniyatning til bilan o‘zaro aloqadorligini shuningdek, tillarning falsafiy xususiyatliri va uning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish masalalari XVIII asr nemis faylasuf tilshunosi Vilgelm fon Gumboldt[1] tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, keyinchalik til va tafakkur, til va millat, til va jamiyat masalalari I.Kassirer, E.Sepir, N.Smelzer, E.Balibar, I.Vallerstayn, B.L.Uorf, X.G.Gadamer E.Benvenist, F.Bekon, J.Mill, G.Shteyntal, V.Vundt, K.Brugman, A.Leskin, G.Ostxof, B.de Bryun, G.Paul, K.Fossler, A.Meye, F. de Sossyur, A.A.Potebnya kabi dunyo olimlari tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida N.I.Tolstoy[2], S.P.Mamontov, A.E.Kibrika, L.N.Evseeva kabi olimlar tomonidan milliy tilni rivojlantirish aspektlarini o‘rganish bilan bir qatorda milliy o‘zlikni anglash masalalarini ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etish borasida salmoqli tadqiqotlar olib borilgan.

Mustaqillik-yillarida yurtimizda mazkur yo‘nalishdagi falsafiy tadqiqotlar Q.X.Xonazarov[3], M.Mirtojiyev, N.Mahmudov, M.Irisqulov, A.Muxtorov,

---

[1] Вильгельм фон Гумбольдт. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – С. 452.

[2] Толстой Н.И. Язык и народная культура. Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. − М.: Издательство “Индрик”, 1995. – С. 512

[3] Хоназаров Қ.Х. Глобаллашув ва тил фалсафаси. Монография. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти. – Б. 136.

U.Sanaqulov, B.To‘ychiboyev, B.Karimov, K.Mira’zamov, J.Tulenov, Z.G‘ofurov, S.Shermuxamedov, N.Muhammadiyev[1], B.Siddiqov, N.Azizova[2] va J.Xolmo‘minov kabi olimlar tomonidan olib borilgan bo‘lsa, filologik yo‘nalishda T.A.Bushuy, M.Mirtojiyev, R.Rasulov va Sh.S.Safarov kabi olimlarimiz tomonidan salmoqli ishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlar milliy tilning milliy o‘zlikni anglashdagi mohiyat mazmunini ochib berishda muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda O‘zbekistonda milliy o‘zlikni anglashda o‘zbek tilining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etilmagan. Aynan ushbu holat mavzumizning ilmiy nuqtai nazardan dolzarbligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan PZ-2020022811 raqamli “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an’analar va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etuvchi platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi shaxs ma’naviyati va milliy ongining shakllanishida milliy tilning jamiyatdagi aloqa vositasi sifatidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy til tushunchasining mazmun-mohiyati va tuzilishini aniqlash hamda uning milliy o‘zlikni anglashdagi rolini ko‘rsatish;

tilning inson ongi va tafakkuri shakllanishidagi roli hamda uning ma’naviy madaniyati bilan uzviy bog‘liqligi masalalarini falsafiy nuqtai nazardan yoritish;

shaxs ma’naviyatini shakllantirishda o‘zbek tilining ijtimoiy-ma’naviy o‘rnini asoslash;

globallashuv sharoitida o‘zbek tilining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirish hamda tadqiqot yuzasidan tegishli xulosa, amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini milliy o‘zlikni anglashda o‘zbek tilining ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda uni rivojlantirishning amaliy va nazariy asosllari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonda o‘zbek tilining mavqeyini oshirish va milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyatini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, kontent analiz, tizimli tahlil kabi ilmiy bilish usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

milliy o‘zlikni anglashda milliy til taraqqiyoti bilan bog‘liq deterministik va dialektik xususiyatlarini aniqlash orqali o‘zbek tilidan foydalanishning ratsional mezonlarini rivojlantirish zarurligi asoslangan;

---

[1] Яхшиликов Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя ва мафкура. –Т.: Фан нашриёти, 2015. – Б. 272.

[2] Азизова.Н. Давлат тили мақоми ўзбек тили функционал ривожланишининг омили сифатида (ижтимоий-фалсафий жиҳатлари). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2020. – В. 47.

globallashuv jarayonida o‘zbek tilining ijtimoiy glottometrik darajasini milliy qadriyatlar asosida oshirish va uning shaxs milliy-badiiy tafakkuri rivojiga ta’sirini tizimlilik, izchillik, uzluksizlik singari mezonlar orqali singdirib borish zarurligi mantiqiy dalillangan;

o‘zbek tilining ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyati yangi tarixiy davr kontekstida milliy qadriyat sifatida shaxs o‘zligini anglash ekzistentsiyasiga dinamik, statik, strukturaviy ta’sir ko‘rsatishi dalillangan;

milliy tilning shaxs o‘zligini anglashdagi funksional ta’siri inson ma’naviy-axloqiy madaniyatini yuksalishida birlamchi omil ekanligi falsafiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy tilning bebaho milliy qadriyat sifatida milliy o‘zlikni anglashdagi o‘rni hamda millat o‘z kelajagi va taraqqiyoti uchun ta’siri ijtimoiy so‘rovnomalar tahlili asosida baholangan;

milliy tilning lug‘aviy, uslubiy, funksional rivojlanishi millatning bebaho ma’naviyati va g‘ururi sifatida yangilanish va ijtimoiy taraqqiyotga intilish sifatida ekanligi ochib berilgan;

o‘zbek tilining ta’lim tizimi va jamiyat barqarorligiga ta’sirida tolerantlik va millatlararo munosabatlarni musahkamlovchi vosita ekanligi asoslangan;

tadqiqotdagi ma’lumotlar umumlashtirilib, nazariy xulosalardan “Ijtimoiy falsafa” fanini takomillashtirishda foydalanishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xalqaro va respublika ahamiyatiga ega ilmiy konferensiyalarda e’lon qilingan, Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan falsafa yo‘nalishidagi ixtisoslashtirilgan jurnallarda chop etilgan maqolalar, ilmiy anjuman va davra suhbatlarida berilgan axborot va tavsiyalar, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi to‘g‘risida tegishli tashkilotlardan olingan xulosalar bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotda ilgari surilgan konseptual g‘oyalar va umumnazariy xulosalar tarix, falsafa, ijtimoiy falsafa, falsafa tarixi fanlari doirasida amalga oshiriladigan tadqiqotlar va metodologik yondashuvlarni takomillashtirish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalar xalqimizning tarixiy madaniy-merosi, milliy qadriyatlarini targ‘ib qilishda, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, uning viloyat bo‘limlari, ma’naviy-ma’rifiy dasturlari, o‘quv-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi muassasalar faoliyati samaradorligini oshirishda hamda oliy ta’lim muassasalarida mavzu yuzasidan o‘tiladigan fanlardan darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda milliy o‘zlikni anglashda o‘zbek tilining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini tadqiq etish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar va takliflar asosida:

milliy o‘zlikni anglashda milliy til taraqqiyoti bilan bog‘liq deterministik va dialektik xususiyatlarini aniqlash orqali o‘zbek tilidan foydalanishning ratsional

mezonlarini rivojlantirish zarurligiga oid taklif va tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining IV-yo‘nalishiga oid Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va “Besh muhim tashabbus” doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning “Ajdodlarga munosib voris bo‘laylik” mavzusidagi 18-bandini ta’minlashda va ma’naviyat soatlarini tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022-yil 28-iyundagi 02/02/1139-son ma’lumotnomasi). Natijada, milliy o‘zlikni anglash va milliy til taraqqiyotining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini asoslashga xizmat qilgan;

globallashuv jarayonida o‘zbek tilining ijtimoiy glottometrik darajasini milliy qadriyatlar asosida oshirish va uning shaxs milliy-badiiy tafakkuri rivojiga ta’sirini tizimlilik, izchillik, uzluksizlik singari mezonlar orqali singdirib borish zarurligiga oid taklif va tavsiyalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” mavzusidagi PZ-20170927147-raqamli amaliy loyiha ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 18-iyuldagi 04/1-2092-son ma’lumotnomasi). Natijada, globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash va milliy til taraqqiyotini rivojlantirishga xizmat qilgan;

o‘zbek tilining ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyati yangi tarixiy davr kontekstida milliy qadriyat sifatida shaxs o‘zligini anglash ekzistentsiyasiga dinamik, statik, strukturaviy ta’sir ko‘rsatishiga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar instituti ERASMUS+ dasturi 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida hisoblash lingvistika bo‘yicha magistrlik dasturini ishlab chiqish” mavzusidagi belgilangan amaliy vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 22-iyundagi 1839-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbek tilining milliy xususiyatlari hamda o‘zbek tilining ijtimoiy-falsafiy mazmun-mohiyatini elektron bazaga kiritishga xizmat qilgan;

milliy tilning shaxs o‘zligini anglashdagi funksional ta’siri inson ma’naviy-axloqiy madaniyatini yuksalishida birlamchi omil ekanligiga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2022-yil 10-iyun kuni efirga uzatilgan “Assalom Samarqand!” ko‘rsatuvining navbatdagi dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 11-iyundagi 01-12/230-son ma’lumotnomasi). Natijada, inson ma’naviy-axloqiy madaniyatining yuksalishida o‘zbek tilining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (xususan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy

jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi hamda uning xorijiy ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Milliy o‘zlikni anglash tushunchasining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda Milliy o‘zlikni anglashning tarixiy-falsafiy negizlari hamda milliy taraqqiyot jarayonida o‘zbek tilining milliy o‘zlikni anglashga ta’siri aks ettirilgan.

Milliy o‘zlikni anglash masalasi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning global transformatsiyasi natijasida zamon talabi nuqtai nazaridan dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bugungi kunda tez sur’atlarda o‘zgarayotgan dunyo hamjamiyati va unda yuzaga kelayotgan milliy hamda etnik mojarolarning ham zamirida til, ma’naviyat va milliylikning integratsiyalashuvi muhim o‘rin egallaydi. Shunday ekan, har bir millat va davlat uchun milliy o‘zlikni anglash, uni rivojlantirish, tarixiy-falsafiy fenomenini ochib bergan holda kelajak avlodga milliy g‘urur ramzi sifatida yetkazib berish masalalari siyosiy strategiyaning bir bo‘lagi sifatida e’tirof etilishi shubhasizdir. Chunki, har qaysi jamiyatning, shu jumladan, Yangi O‘zbekistonning ham o‘z oldiga qo‘ygan aniq, strategik maqsad va vazifalari mavjud. Milliy o‘zlikni anglash masalasi esa aniq maqsadlarni ifoda etadigan ana shunday kuch-qudrat manbaidir.

Milliy o‘zlikni anglash kishilik jamiyatida ijtimoiy-etnik birlik sifatida millatning tarixan shakllanishi, uning axloqiy, diniy, ilmiy, badiiy, falsafiy va mafkuraviy qarashlarda yaxlit namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. O‘z navbatida milliy ong milliy o‘zlikni va milliy manfaatni anglashdan kelib chiqadi. Shunday ekan milliy o‘zlikni anglashning asosiy tarkibiy qismini milliy axloq tashkil etadi. Hech kimga sir emaski, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida qadimgi Turon zaminida ilk axloqiy tarbiya va insoniylik masalalari zardushtiylik ta’limotida shakllangan bo‘lib, uning negizida ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalning borligi ma’naviy mezon sifatida e’tirof etilgan.

VIII asrdan boshlab islom dinining ko‘hna Movarounnahr hududlarida keng yoyilishi va asta-sekin tasavvuf ta’limotining kishilar hayotiga kirib kelishi hamda tasavvufiy tariqatlar faoliyatining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Natijada milliy o‘zlikni anglash masalasiga ma’naviy – ruhiy nuqtai nazardan e’tibor berila boshlandi. Hadislarda “Kimki o‘zligini tanisa, robbisini taniydi” deyilgani kabi purma’no so‘zlar kishilar ongu shuurini qamrab olib bu hayotda faqat ezgu

amallarni bajarish, oxiratni o‘ylash, yaxshilik qilish, diniy bag‘rikenglikni ta’minlash kabi axloqiy me’yorlarni keng jabhada tarannum eta boshlagan. Islom an’anlariga muvofiq, Qur’oni Karim va hadislarda berilgan buyuk hikmatli so‘zlarning ma’no mazmunini yoritish va kelajak avlodni milliy o‘zligini anglaydigan mukammal shaxs etib tarbiyalash maqsadida Hadis maktablari shakllandiki, unda tahsil olgan allomalar o‘z tadqiqotlari bilan butun dunyoda shuhrat qozonganlar. “Olam mehvari” deb tan olingan buyuk muhaddislarimiz Imom Buxoriy va Imom Termiziyning islom olamidagi salohiyati, milliy ma’naviyatimizni yuksaltiradigan va dunyoga tanitadigan darajada mashhur salohiyatga aylandi. Natijada, chin e’tiqodni talqin etadigan va har sohada yetti o‘lchab bir kesadigan mutasavvif allomalar aynan Markaziy Osiyo xalqlari orasidan yetishib chiqa boshladiki, Movarounnahr o‘ziga xos tasavvuf makaziga aylana boshlandi.

Milliy o‘zlikni anglash borasidagi fikrlar keyingi davrlarda faoliyat yuritgan mutafakkirlar qarashlarida ham namoyon bo‘lgan. Zero, milliy o‘zlikni anglash insoniyat taraqqiyotining eng muhim mezonidir. Jumladan, buyuk mutafakkir va faylasuf Abu Nasr Forobiy o‘zining shoh asari sanalgan “Fozil odamlar shahri” asarida “Inson baxt-saodatga erishishi uchun dastavval olam haqidagi ilmlarni o‘zlashtirib, so‘ngra insonni o‘rganishga oid bilimlarni va kamolotga erishish sirlari kabi go‘zal insoniy fazilatlarga diqqatni jalb etmog‘i lozim”[1], deb qayd etgan.

Davrlar o‘tishi bilan milliy o‘zlikni anglash masalasi yangicha davr va yangicha nomlanishda namoyon bo‘la boshladi. Asosan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida namoyon bo‘la boshlagan milliy o‘zlikni anglash masalalari yangicha ko‘rinishda XIX asrning boshlarida vujudga kelgan bo‘lsada, biroq Turkiston o‘lkasining Chor Rossiyasi tomonidan to‘liq mustamlakaga aylantirilishi natijasida goho yashirin, goho oshkora tarzda xalq tafakkuri va ijtimoiy hayotida namoyon bo‘la boshladi. Chunki, Chor Rossiyasi tomonidan mustamlakalashtirish siyosati mahalliy aholi uchun bir tomondan, og‘ir va murakkab kechgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan xalqning o‘z-o‘zini anglashi va milliy uyg‘onishida muhim ahamiyat kasb etdi. Markaziy Osiyoda ma’rifatparvarlikning paydo bo‘lishi va shakllanishi o‘lkadagi adolatsizlik va zulmning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashib uni ochiq ko‘rsata oldigan asosiy qurolga aylandi. Aynan ana shunday muhitda toblangan halollik va poklikni, adolatlilik va mari’rifatlilikni o‘zining shiori qilib olgan Ahmad Donish, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi yurt va millat ma’rifatparvarlarining g‘oyalari va ilmiy merosi ijtimoiy tuzumni tahlil qiladigan, mamlakat rivojlanishi va halqning farovonligi uchun xizmat qiladigan milliy o‘zlikni anglash g‘oyasi sifatida maydonga chiqqan. Jadid mutafakkirlari o‘zlarining ma’rifatparvarlik islohotlari bilan qo‘rqmas va jasur targ‘ibotchi sifatida, mamlakatdagi siyosiy holatga qaramay shijoat bilan qadam qo‘yib o‘z davrining ijtimoiy - siyosiy hayotida katta mavqeyiga ega bo‘lib, shuhrat qozonganlar. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo ma’rifatparvarlik g‘oyalarining

[1] Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёти, 2009. – Б. 592.

asoschisi sifatida jadidlarni ilhomlantirganlar.

Istiqlolga erishish sharofati bilan milliy o‘zlikni anglash orqali toptalgan urf-odatlar va qadriyatlarni tiklash va ajdodlar ruhini yod etish, ulardan qolgan ma’naviy merosni tiklash orqali yangi adolatli qonun ustuvorligiga asoslangan jamiyat barpo etish, milliy davlatchilikning barcha jabhalariga singdirilib borildi. Haqiqiy milliy o‘zligimizga qaytar ekanmiz, xalqimizning ko‘p asrlik orzulari va maqsadlarini o‘zida mujassam etgan ma’naviy merosimizni qayta tahlil qilish hamda uni zamon talabiga mos ravishda milliy tilimizda tahlil etish va qayta nashr etish hamda jahon miqyosida tarannum etish ham dolzarb vazifaga aylandi.

Milliy o‘zlikni anglash millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Milliy o‘zlikni anglash deganda millatning o‘z tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlarini bilishi, milliy urf-odat va an’analarini e’zozlashi, ajdodlarining ma’naviy merosidan bahramand bo‘lgan holda uni asrab-avaylab kelajak avlodga qoldirishi kabi xususiyatlar tushuniladi. Milliy o‘zlikni anglashda bir millatga mansub kishilarning ma’naviy kamoloti va o‘zligini anglash darajasida namoyon bo‘ladi. Bundan shunday ma’no kelib chiqadiki, inson hayotining ma’no-mazmunini anglashi milliy o‘zlikni anglashdan boshlanadi.

Milliy o‘zlikni anglashning strukturasi va mohiyati bir millatning an’anaviy urf-odati va qadriyatlari ya’ni, milliylik jamoaviylik, mustahkam oila, e’tiqodlilik, o‘zaro hurmat, Vatanga muhabbat, fidoyilik, adolatlilik, diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, insonparvarlik, yurt ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, milliy va diniy qadriyatlarni e’zozlash va avloddan avlodga yetkazishdan iboratdir.

Milliy o‘zlikni anglashda tilning xususiyatlari turli sohalarga oid bilimni umumlashtirish va insonning ruhiy olami va hayotiga ta’sir etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, milliy tilning xususiyatlari qariyb ikki ming-yillardan buyon faylasuflar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar va boshqa qator ijtimoiy fanlar vakillarining e’tiborini jalb qilib kelmoqda.

Til nazariy jihatdan olib qaralganda doimiy ravishda yangilanib turadigan insonga xos ijodiy salohiyat hamdir. Til va tafakkur o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tayyor fikrni ifodalash emas, balki uni yaratish vositasi sifatida ham e’tirof etiladi. Milliy tilning esa yana bir muhim xususiyati shundaki, u ma’naviy birdamlikni shakllantiradi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, milliy til o‘z-o‘zidan vujudga kelib shakllanmaydi. Zero, bir necha asrlar davomida, suronli zamonlar va tazyiqlarni boshidan o‘tkazgan ona tilimiz bugungi kunda haqiqatda qaddini rostlamoqda. Milliy o‘zlik va milliy istiqlol bag‘rida o‘sib, voyaga etmoqda. Milliy til hamisha faol va muomalada, harakatda, sayqallanishda bo‘lsagina rivojlanadi. Zamon evrilishlariga javob bera olmaydigan til esa rivojlanmay qoladi. Milliy tilga e’tibor millat va xalqning turmush tarzida ongu tafakkurida va xayolida hamda o‘z fikrini ravon bayon etishida, shuningdek, davlatning taraqqiyot strategiyasida milliy g‘urur kabi e’tirof etilishi lozim. Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyo tamaddunida milliy tilning o‘rni beqiyosdir. Ko‘p millatlilik va ko‘ptillilik mavjud ekan, ularning barchasi ham o‘z tarqqiyotiga erishish hamda o‘z milliyligini saqlab qolish, qolaversa o‘z milliy an’analarini rivojlantirishga harakat qiladi. Lekin, dunyo ahli o‘z milliyligi oldida bir tilning baland maqomda bo‘lishi va boshqa bir

tilning kamsitilishini qabul qila olmaydi. Shunday ekan, milliy tilni milliy o‘zlikni anglashning asosi sifatida e’tirof etish va rivojlantirish davr talabi hisoblanadi.

Milliy tilimizning zabardast mutafakkiri Alisher Navoiyning ulkan xizmatlari evaziga milliy tilimiz o‘zining boy lug‘ati va tarixiga ega bo‘ldi. Chunonchi, Alisher Navoiyning faoliyatini bevosita davom ettirgan mutafakkir allomalarimizning dunyo xazinasidan joy olgan ilmiy asarlari milliy tilimizning nafosati va boyligini dunyoga tarannum etishga xizmat qilib kelmoqda.

Prezidentimizning “Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, ulug‘ alloma, XX asr boshida olti tilli – o‘zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug‘at tuzgan Ishoqxon Ibratning mana ushbu hikmatli so‘zlarini eslatmoqchiman: “Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir””[1] degan da’vati yoshlarimiz uchun o‘ziga xos betakror ma’naviy-axloqiy tarbiya maktabi va ona tiliga muhabbat muhitini shakllantiradi. Zero, ona tili milliy ma’naviyatning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Unga munosib ehtirom ko‘rsatish esa muqaddas insoniy burchdir.

Bugungi kunda xalqaro tadqiqotlarda har bir tilning milliyligini himoya qiladigan yondashuvlar doirasida bir qancha nazariyalar ishlab chiqilganligi tadqiq etilgan. Masalan, XIX asr oxiri va XX boshlaridagi tilshunos olimlar Bendjamin Li Uorf[2] va Eduard Sepir[3] tadqiqotlarida tilning fiziologik nuqtai nazardan talqin qilinishi bilan birga har bir xalqning milliy tiliga alohida urg‘u berilgan.

Tadqiqotlarda milliy tilimizning kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan har qanday ta’sirlardan asrab qolish uchun bir necha tavsiyalar ham keltirilgan. Masalan: O‘zbek tilining haqiqiy milliy til maqomini, davlat va jamiyat hayotidagi mavqeini mustahkamlash maqsadida o‘zbek tilida yaratiladigan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ilmiy adabiyotlarning tirajini ko‘paytirish lozim. Shuningdek, xorijiy tillardan o‘zbek tiliga o‘zlashtirilayotgan so‘zlar va iboralarni sof tarjimasi yoki muqobil, o‘xshash tarjimasini yaratish orqali milliy til boyligini oshirish darkor. Aniqrog‘i, o‘zbek tilining lug‘atini yanada boyitish maqsadga muvofiqdir. Zero, bir milliy tilning lug‘ati boy bo‘lmasa yoki etarli darajada shakllantirilmagan bo‘lsa, boshqa tillarning “yordam”iga muhtoj bo‘ladi va bu muhtojlik esa tobelikka yetaklaydi[4].

Dissertatsiyaning **“Shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda milliy o‘zlikni anglash va o‘zbek tilini rivojlantirishning ahamiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida milliy o‘zlikni anglashda o‘zbek tilining ijtimoiy zarurati hamda shaxs ma’naviyatini shakllantirishda o‘zbek tili va milliy ongning ahamiyati yoritilgan.

Milliy til muayyan kishilar o‘rtasida faqatgina aloqa vositasi bo‘lib

---

[1] Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 21.10.2019. https://uza.uz/uz/posts/prezident-shavkat-mirziyeevning-zbek-tiliga-davlat-tili-ma-o-21-10-2019

[2] Уорф Б.Л. Языки как образ мира. – М: Издательство АСТ: Terra Fantastica, 2003. -С. 202–219.

[3] Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии / Эдвард Сепир; Пер. с англ. под ред. и с предисл. А.Е.Кибрика. 2-е. Изд. − М.: Прогресс, 2002. – С. 656.

[4] Ж. Холмўминов. Глобаллашув ва миллий маънавият. Рисола. – Тошкент.: Ma'naviyat, 2016. –Б. 32.

qolmasdan, u o‘z yo‘nalishiga ko‘ra o‘zining qaysi millatga mansubligini belgilab beruvchi vositadir. Shunday ekan, dunyo tillari ichida eng go‘zal va betakror til har bir kishining milliy tilidir. Milliy tilda har bir millatning ruhi namoyondir. Milliy til yo‘qolsa, millat ham yo‘qoladi aksincha, milliy til qanchalik sog‘lom va bardavom bo‘lsa, shu tilda so‘zlashuvchi millatlar ham bardavom rivojlanadi, millat sog‘lom fikrli bo‘ladi. Sog‘lom fikrli millat esa milliy o‘zligini teran anglaydi. Shunday ekan milliy o‘zligini teran anglagan millat hech qachon boshqa bir xalq yoki millatga mute bo‘lmaydi. Milliy til xalqni birlashishga, o‘z milliyligini asrab avaylashga chorlaydi.

Milliy til har bir millatning ruhi va millat qiyofasining bir bo‘lagidir. Milliy tilni asrash, rivojlantirish har bir millatning yuksalishiga zamin yaratadi. Shunday ekan, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo singari buyuk siymolarni yetishtirgan millat tili doimo mangu, barhayotdir.

Bugungi kunda o‘zbek tili ham millatning aloqa vositasi va ham shu tilni o‘rganadigan fan sifatida e’tirof etiladi. “O‘zbek tili” atamasi esa o‘z navbatida “ona tili” atamasi bilan ma’nodoshlikni hosil qilib, o‘zbek millatining milliy tilini anglatadi[1].

O‘zbek tili tillarning gnoseologik tasniflanishiga ko‘ra, Markaziy Osiyo davlatlari uchun xarakterli bo‘lgan “turkiy tillar oilasi”ga aniqrog‘i, turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansubdir. Shuningdek, lisoniy tadqiqotlar nuqtai nazaridan “So‘z o‘zagiga qo‘shimchalar qo‘shish orqali ma’lum so‘z yoki shakl yasash mumkin bo‘lgan (agglyutinativ) tillar”[2] qatoriga kiradi.

O‘zbek tili o‘zining juda boy o‘tmishiga egadir. Manbalarga ko‘ra, asosan XI-XII asrlarda eski turkiy tillar turkumidan ajralib chiqa boshlagan eski o‘zbek tili o‘zining tarixiy taraqqiyoti davomida ilmiy manbalarda “eski o‘zbek tili”, “turkiy til”, “chig‘atoy tili”, “chig‘atoy turkiysi” kabi nomlar bilan atalgan. Asosan, vengriyalik olim Herman Vamberining 1867-yilda nashr etilgan “Chig‘atoy tili darsligi” nomli risolasi va undan foydalangan bir qator G‘arb davlatlari olimlarining tadqiqotlarida XIII-XIX asrlardagi xalqlarning milliy tili bo‘lgan eski o‘zbek tili “chig‘atoy tili” nomi bilan noto‘g‘ri talqin qilib kelingan.

Tillar millatlarni va millatlar xalqlarni birlashtiradi. Shunday ekan, ona tilini rivojlantirish, uning obro‘-e’tiborini yuksaltirish bugungi zamonaviy yoshlarga qo‘yilayotgan talablardan bittasidir. Xorijiy tillarni o‘rganish va xorijiy tillarda suhbatlasha olish kishining ilmi va madaniyati darak bersa, o‘zining milliy ona tilini bilish esa har bir kishining muqaddas burchidir. Zero, har bir xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagini uning milliy tili namoyon etadi. Shunday ekan milliy ona tilimiz bo‘lgan o‘zbek tilini e’zozlash, zamonaviy yosh avlodni esa milliy tilga hurmat ruhida tarbiyalash burchimizdir. Ona tilimiz millatimiz faxri va g‘ururi bo‘lish bilan birga millatimiz qalbining oynasihamdir. Milliy tilning mavqeini yuksaltirgan sari uning istiqboli nurli va charog‘on bo‘lishi ham ayni

[1] Rahmatullayev Sh., Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi., 2020. – B. 260.
[2] https://uz.wikipedia.org/wiki/Agglyutinativ_tillar

haqiqatdir.

O‘zbek tilini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilar ekan, bugungi kunda barcha jabhalarni qamrab olishi bilan birga xorijdagi O‘zbekiston elchixonalarida “O‘zbek tilining do‘stlari” nomli klublarning tashkil etilishi yoki O‘zbekistonning “Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi”ga a’zo bo‘lganligi bilan ham qiziqarlidir. Shuningdek, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yurtimizda o‘zbek tilini ulug‘lash uning ko‘rki va tarovatini jahonga tarannum etish maqsadida o‘zbek adabiyotiga o‘zining betakror hissasini qo‘shgan Ishoqxon Ibrat, Muhammad Rizo Ogahiy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Ibrohim Yusupov, Muhammad Yusuf va Halima Xudoyberdiyeva kabi adiblarning ijod maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Til madaniyatning vositasi bo‘lib qolar ekan, til orqali inson shaxsi shakllanadi. Til odamlarga xalqning mentaliteti, an’analari, urf-odatlari shuningdek, borliqning o‘ziga xos madaniy obrazini qabul qilishga yordam beradi. Falsafiy va lingvistik fikrlashning eng muhim tomoni ham jamiyatdagi inson shaxsini va tilini tushunishdan iboratdir. Shuning uchun ham falsafiy nuqtai nazardan har bir shaxs ijtimoiy voqelikni o‘zgartiruvchi, faol mavjudot sifatida e’tirof etiladi. Shaxsning faol mavjudod sifatida shakllanishida til muhim ahamiyatga ega ekan, shaxsning ijtimoiy jamiyatda millat ko‘rinishida ajralib chiqishiga inqilobiy intensiv omilllar kerak bo‘ladi. Natijada, shaxsning “jamiyat” va “xalq”ning bir bo‘lagi sifatida, “fuqarolik” nomi ostida millat sifatida shakllanishiga zamin yaratiladi.

Shaxs ma’naviyatini shakllantirish borasida so‘z borar ekan, ma’naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, uning inson ruhiyati, milliy madaniyati va axloqiga ta’siri kabi hodisalarga ham e’tibor berish foydadan xoli bo‘lmaydi. Inson shaxs sifatida shakllanib borar ekan uning ongida olam mavjudligi (borliq) haqiqati bilan uyg‘un ravishda milliy ma’naviyatning Vatan, shaxs, millat, adolat, haqiqat kabi darajalari bilan birga shaxs ma’naviyatining asosiy jihatlarini tashkil etuvchi imon, ilm, mas’uliyat va mehr kabi tamoyillarga nisbatan tasavvurlari rivojlanib boradi. Shuningdek, ma’naviyatga baho berishda u ikki ko‘rinishda ya’ni, shaxs ma’naviyati va millat ma’naviyati ko‘rinishida namoyon bo‘lishini unutmaslik darkor.

